

REFERAT

MAVZU: Olamning diniy, ilmiy va falsafiy manzarasi

TOPSHIRDI:
QABUL QILDI:



Komilov. A
Babajanov. S.B

Mavzu:

Olamning diniy, ilmiy va falsafiy manzarasi

Reja :

- 1. Olam va odamning paydo bo'lishi va
evalyutsiyasi .**
- 2. Olam va odamning mavjudligi.**
- 3. Olam tushunchasi . Olamning diniy , ilmiy va
falsafiy mazmuni.**

Olam va odam muammolarining tarixiy ildizlari. Bu mavzuga oid masalalar olamda odamning mavjudligi va yashashi, hayoti va faoliyati bilan bog'liq holda shaidlangan. Olam to'g'risidagi qarashlar odamzodning tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, shunchalik qadimiydir.

Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi va butun go'zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi. Olam tushunchasi, eng avvalo, odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Agar odam bo'lmaganida edi, bu olam haqidagi tasavurlar ham bo'lmas edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Hech narsasi yo'q olam yo'qlikdir. U mavhum tushuncha, ya'ni abstraktsiyadir.

Qadimgi davrlardan buyon odam o'zini anglagach, olamning tabiiy qismi ekahligini tushuna boshladi. Dastlab, uning hayotini ta'minlovchi tirikchilik vositalarining ahamiyatini tushunib etdi va ularni e'zozlash, avaylab-asrash tuyg'usi shakllana boshladi.

Shu tufayli, olam asosida yotuvchi to'rt elementni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g'oyalar vujudga keldi hamda olam to'g'risidagi sodda

kosmologik qarashlar paydo bo'lgan. Ayrim kishilar odamning tirikchiligini ta'minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan ne'matlar deb bildi. Bunday qarashdan olam odam uchun yaratilgan degan ma'no kelib chiqadi. Aslida qanday? Bu falsafiy muammodir.

Olamda odam yashashi uchun qulay bo'lgan sharoit bo'lmasa-chi? Odamlar qahraton sovuq hukmronlik qiladigan doimiy muzliklar bag'rida ham, har doim issiqlik taftidan qovjirab yotuvchi issiq o'kalarda ham yashashadi-ки. Har bir joyda odam o'ziga qulay sharoit yafatib olishga intiladi.

Odam hayvonlardek tabiatdagi bor narsalardan oziqlanish bilangina, chegaralanib qolmasdan, ularni o'ziga moslashtirishga, sovuq bo'lsa — isitishga, xom bo'lsa - pishirishga, issiq bo'lsa — sovutishga intiladi. Bu esa odamning olamga moslashishga intilishi oqibatidir. Ya'ni, olamni odam o'ziga, o'z ehtiyojlariga moslashtirishga intilib kelgan. Shu tarzda odam ham, olam ham ta'komillashib, er yuzi o'ta «xonakilashtirilgan» olamga aylangan.

Olam, eng awalo, tor ma'noda bu odam yashaydigan joy. Aslida odamzod va hayvonot olami, o'simliic va hasharotlar dunyosi, jismoiiiy, ruhiy, ma'naviy olam va boshqa shu singari Ko'plab tushunchalar bor. Ular dunyoda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi. *Masalan. odamning ruhiv olami*

uning bilim. tairiba va xavolotini o'z ichiga oluvchi o'ta kenuu gamrovli tushunchadir. Bunda biz olam odam yashaydigan joy, degan ma'noga qaraganda vanada xengroq mazmunga ega bo'lamiz.

Nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgaliicda siz bilan biz mansub bo'lgan dunyoni ifodalaydi. Ammo tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham bond, u ob'ektiv olamning mazmunini ifdda etadi.

Bunday tushuncha haqidagi tasawurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Dastlab, bu umumlashtiruvchi tushuncha, narsalarning asosida nima yotadi, degan nuqtai nazardan Kelib chiqib, substantsiya (lotincha, substantia — nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat degan ma'noni beradi) deb ataldi.

Substantsiya — muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma-xil ko'rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir. Olamning asosida bitta mohiyat — substantsiya yotadi, deb hisoblovchi ta'limotni monizm deb atashadi.

Faylasuflar substantsiya sifatida biror jismni, hodisani, materiyani, g'oyani yokii ruhni olishgan. Substantsiya sifatida moddiy jismlarni, materiyani oluvchilar —

materialistik monizm tarafdorlari. G'oyani, rahni oluvchilar esa — idealistik monizm tarafdorlari hisoblanadilar. Shuningdek olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham g'oya yoki ruh yotadi deb hisoblovchi faylasuflar dualistlar (dualizm lotincha, dualis — ikkilangan degan tushunchani anglatadi) deb hisoblanadi. Arastu, Moniy, R.Dekart va boshqalar dualistlardir. Olamning asosida ko'p substantsiyalar yotadi deb hisoblovchilarni esa plyuralizm (lotincha pluralis — ko'pchilik so'zidan olingan) tarafdorlari deb atashadi.

Olamning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi ham fanning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Masalan. Qadimgi Hindiston va Xitoy da. Misr va Bobilda. Qadimgi O'rta Osivo va Yunonistonda ba'zi faylasuflar olamning asosida qandavdir modda voki muavvan unsur yotadi, deb hisoblashgan. Ularning ba'zilari bu unurni olov, boshqalari suv yoni havo, avrimlari esa — tuproqdan iborat deb hisoblashgan. Ba'zi bir falsafiy ta'limotlarda esa. olamning asosida — olov, havo, suv va tuproq yotadi. barcha narsalar ana shu to'rtta unurning birmishidan hosil bo'lgan. deyilgan.

Olamning asosida yotuvchi substantsiyani axtarishning yana bir yo'li narsalarning tancibidagi bo'linmas eng kichik unurni, ya'ni narsalarning tancibidagi umumiy substrat (lotincha substratum — asos ma'nosini anglatadi) ni axtarishdir.

Bunday yo'nalishga mansub oqimlardan biri atomistik oqim hisoblanadi. Masalan, Qadimgi Yunon faylasuflari LevKipp. Epimr. Pemok2H va Luicretsivlar narsalarning va butun olamning asosida eng Kichitc bo'linmas unsurlar atomlar votadi. iilar o'zlarining shaicli. haramtlanishi va vaznlari bilan bir-birlaridan farq qiladi. deb hisoblashgan.

Olamni anglash to'g'risida turlicha, hatto bir-biriga qarama-qarshi qarashlar mavjud. Bunday qarashlar odarrilarning olamga o'z o'lchovlari bilan qarashlari qiqibatida paydo bo'ladi. Birov uchun olam yaxshi va yomon, oppoq va qora ranglard4n tashicil topgan, boshqa ranglaming bo'lishini u tasvvuriga ham sig'dira olmasligi mumkin

Boshqalar esa, olamni xilma-xil rangda, qirralarda Ko'radi. Ular oq bilan qora oralig'ida oqimtirroq yoKi qoraroq ranglar ham bo'lishi mumKinligiga e'tibor qilishadi.

Olam tushunchasi Keng qamrovli va Keng yo'nalishli tushuncha bo'lib, ma'lum ma'noda voqeliKKa tizimli, ya'ni sistemali yondoshishni talab qiladi.Masalan. elementar zqrrachalar olami tushunchasi odamga ma'lum bo'lgan va hali ma'lum bo'lmagdn barcha elementar zarrachalarni qamrab oladi.

Agar biz yashayotgan butun koinotni elementar zarrachalardan tashidl topgan deb hisoblasak, bu tushuncha

butun koinotni ham aks ettirishi mumkin. Yoki o'simliidar olarrii tushunchasini olaylik. Bu tushunchaga faqatgina o'simliidar kiradi, hayvonlar va odamlar bu olamdan chetda qoladi.

Shu nuqtai nazardan olam tushunchasi nisbiy mohiyatga ega. Ba'zi kishilar olam deganda barcha narsalarni, jismlarni, hodisalarni qamrab oluvchi universal sistemani tushunadi. Bu ma'noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi. Ayrimlar uni cheksiz va chegarasiz, boshqalar esa koinot ma'nosidagi olamni cheklangan ob'ekt sifatida talqin etadi. Cheksizlik va chegarasizlik tushunchalari nisbiy ma'noga ega, bir sistemada cheksiz hisoblangan ob'ekt boshqa sistemada cheidi bo'lishi mumkin va aksincha.

Diniy-kosmologik qarash-larda olam ilohiy qudrat kuchi bilan yaratilgan deb talqin etiladi.

Bu olamning vaqtda boshlanishi borligiga, ya'ni uning cheidi ekanligiga ishoradir. Islom dinidagi kosmologik qarashlarda o'n sakkiz ming olam haqida gapiriladi va mazkur qarash bo'yicha biz yashayotgan moddiy olamdan tashqari, undan mustaqil bo'lgan ko'plab boshqa olamlar ham mavjuddir, deyiladi.

Hozirgi zamon kosmologiyasida ham fanga asoslangan bir qancha kontseptsiyalarda olam o'tkinchi, tabiiy ravishda paydo bo'lgan, degan g'oya ilgari suriladi. Bu nuqtai nazarlarda olamning paydo bo'lishidan oldingi holati «hech nima» va

«yo'qlik» tushunchalari bilan izohlanadi. Angliyalik oli'm, Stiven Loxing «Olam vujudga kelmasdan ilgari nima bo'lgan?» degan savolning mantiqsizligini, vaqtning faqatgina kelajakka yo'nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslashga haraxat qilgan.

Uning fikricha, bu shimoliy qutb nuqtasidan turib qaraganda, hamma nuqtalar faqat janubga olib boradigan holatni eslatadi. Bunday holat olamning boshlang'ich holatidir. Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo'nalishigina mavjud bo'lgan holati olamning boshlanishidir. Bu holatda o'tmish yo'q, faqat kelajak mavjud.

Olam haqidagi diniy tasawurlar uning Kelajagi, yaratilishi yoki o'tmishiga oid тйгакkab masalalarni, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin etadi, Dinda olamni «bu dunyo» — o'tkinchi olam va «narigi dunyo» — abadiy olamga ajratib tushuntirishadi. Bu dunyodagi mashaqqatlari evaziga odam narigi dunyoda rohat-farog'atga muyassar bo'ladi, degan g'oyaga asoslaniladi.

Fan olam to'g'risida o'ziga xos fikr yuritadi

Unda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiq doirasidan chetga chiquvchi hodisalar esa

izohlanmaydi. Ayrim ajoyibot hodisalarining fan tadqiqot ob'ektiga kiritilmaganining sababi ana shunda.

Falsafa olamni izohlashda fanning, dinning, san'at va adabiyotning, xullas, fan bilan birgalikda boshqa xilma-xil bilimlarga tayanib, umumlashgan xulosalar chiqaradi. Demak, falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadagi, dindagi va boshqa bilim sohalaridagi olam tushunchalariga nisbatan boyroq, sermazmunroq va kengroqdir.

Olamning namoyon bo'lish shaidlari xilma xildir. Faqat moddiy jismlarnigina o'ziga qamrab oluvchi olamni moddiy olam deyishadi.

Ayrim kishilar uni jismoniy, ya'ni fizik olam deb atashadi. Odamning ma'naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamni ma'naviy olam deyishadi. Aynan shu paytda biz bilan birgalixda mavjud bo'lgan olam aktual olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo'lish imkoniyati bor va bo'lishi mumitin bo'lgan olam potentsial olam deyiladi. **Masalan, sizning bugungi kundagi talabaligingiz tactual olamga mansub bo'ls., kelajakda mutaxassis bo'lib etishishingiz esa potentsial olamga mansubdir.**

Olamning mavjudligi shubhasiz bo'lgan va barcha e'tirof etadigan qismi real olam deyiladi. Kelajaxda mayjud

bo'lishi ehtimoli bo'lgan olam virtual olam deb ataladi (virtual so'zi lotincha virtualis — ehtimoldagi degan ma'noni beradi).

Aniq ma'lum bo'lgan olam konkret olam deyiladi, xayoldagi, tasawurdagi, idealdagi olam obrazi abstrakt olam deyiladi.

Odamning kundalik hayotidagi hammaga ma'lum bo'lgan, tan olingan hayoti real olamga mansub bo'lsa, uning xayoliy rejalari virtual olamga, uning o'zi va atrofida gilar konkret olamga, kelajakka yo'nalgan orzu-umidlari esa abstrakt olamga mansubdir. Odam o'z rejalarni real olamga asoslanib tuzsa, potentsial olamining konkret kelajakka aylanish ehtimolligi oshadi.

Odam olamda boshqalardan ajralib, yakkayu yagona bo'lib emas, balki ijtimoiy hayot kechiradi va jamoa bo'lib yashaydi. Odamlar jamoasi jamiyatni tashkil etadi. Odamlar jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, faoliyatlari, o'y-xayollari, ideallari, maqsad va maslaidari bilan birgalikda ijtimoiy olamni tashkil etishadi.

Odamning jamiyatdagi boshqalar bilan birgalikdagi ijtimoiy faoliyati, ularning har biriga xos bo'lgan takrorlanmas individual olamlariga bog'liqdir. Individual olam, ayni paytda tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi, o'zida ifodalaydi. Bular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Xullas, olam haqidagi xilma-xil tasavvurlar mavjudlikning eng umumiy falsafiy tushunchasi shakllanishiga asos bo'lib keldi. Bunday tushuncha borliq haqidagi tushunchadir.

Tayanch tushunchalar

Olam, odam, monizm, dualizm, pluralizm, substantsiya, substrat, individual olam, ijtimoiy olam, real olam, virtual olam.

Olam tushunchasi


Olam tushunchasi eng avvalo odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi . Agar odam bo'lmaganida edi , bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo'lmas edi . Demak olam odam bilan mazmundordir . Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon

bo'ladi . Hech narsasi yo'q olam yo'qlidir . U mavhum tushuncha ya'ni abstraktir **Olam tushunchasi** keng qamrovli va keng yo'nalishli tushuncha bo'lib , ma'lum ma'noda voqeilikka

tizimli , ya'ni sistemali yondoshishni talab qiladi . Masalan , elementar zarrachalar olami tushunchasi odamga ma'lum bo'lgan va hali ma'lum bo'lmagan barcha elementar zarrachalarni qamrab oladi.



ОДАМ ЭВАЛУТСИЯСИ



Олам ва одам тарихий ildizlari


Bu mavzuga oid masalalar olamda odamning mavjudligi va yashashi , hayoti va faoliyati bilan bog'liq holda shakllangan . Olam to'g'risidagi qarashlar odamzodning tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, shunchalik qadimiydir.

Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari , jozibadorligi va butun go'zalligi bilan yagonaolamni tashkil etadi . Olam tushunchasi , eng avvalo, odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi . Agar odam bo'lmaganda edi , bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo'lmas edi . Demak , olam bilan odam mazmundordir.

Olam uni tashkil etuvchi narsalar ilan birgalikda namoyon bo'ladi va hech narsasi yo'q olam yo'qligidir . Umavhum tushuncha , ya'ni abstraktsiyadir.

Olam va odamning tarixiyligi

Olam va odam muammolarimning tarixiy ildizlari . Bu mavzuga oid masalalar olamda odamning mavjudligi va yashashi , hayoti va faoliyati bilan bog'liq holda shakllangan olam to'g'risidagi qarasglar odamzodning tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa shunchalik qadimiydir.



Olam haqidagi diniy tasavvur

Olam haqidagi diniy tasavvurlar uning kelajagi , yaratilishi yoki o'tmishiga oid murakkab masalalarni , asosan , iloxiy qudratning xosilasi sifatida talqin etadi . Dinda olamni “bu dunyo”- o'tkinchi olam va “narigi dunyo” – abadiy olamga ajratib tushuntiradi . Bu dunyodagi mashaq- Qatlari evaziga odam narigi dunyoda rohat-farog'atga muyassar bo'ladi , degan g'yaga asoslanadi

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” T. O‘zbekiston 1999
2. Karimov I. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T. “Sharq” 1998
3. Karimov I. “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch ” Toshkent 2008